



## XALQ OG'ZAKI IJODIDA MOTIV TUSHUNCHASI

Abdullayev Xotamjon Xamroyevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada badiiy asarda voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur – motivlar haqida, jumladan, motiv tushunchasi, uning badiiy asardagi funksiyasi va turlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Motiv, xalq og'zaki ijodi, syujet, doston, ertak, tematik konsepsiya, tush motivi, sinov motivi.

Har bir davring o'z ijtimoiy – siyosiy, madaniy yangiliklari, evrilishlari bo'ladi. Bunday jarayonda jamiyat ijtimoiy tafakkurida albatta yangicha, muayyan dunyoqarash shakllanadi. Natijada, kechagi insonning tafakkur tarzi, ongi, tasavvur va munosabatlari butunlay o'zgaradi.

Ta'lrim sohasidagi islohotlar milliy-adabiy merosimizni, ajdodlarimiz yashagan zamin, tarixiy poetika va adabiy jarayon nuqtai nazaridan o'rganishni, ma'naviy ehtiyojga aylantirmoqda. Davlatimizning ta'lrim sohasida olib borayotgan siyosatidan kelib chiqadigan aniq vazifalarini isloh qilish va uning istiqbolidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini kafolatlaydigan maqsadlarga muvofiqlashtirishdan iborat. Ushbu maqolamizda biz motivlar, xususan, o'zbek xalq og'zaki ijodida uchraydigan motivlar xususida so'z yuritamiz.

Har bir tadqiqotchi, avvalambor, butunni bilish uchun uni yuzaga keltiruvchi qismlarni bilish kerak bo'ladi. Shu ma'noda epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan ularning mohiyatini anglash mushkul. Demak, dastlab "motiv o'zi nima", degan savolga javob berish lozim.

"Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da "Motiv syujet tarkibidagi halqalardan biri", deyilgan.<sup>1</sup> Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo'lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya'ni epik asar qurilma-strukturasini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Ushbu fikrga qo'shimcha qilib M.Jo'rayevning fikrni keltirish mumkin: "Motiv" (fr. motif - kuy, ohang so'zidan) - syujet tarkibidagi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biri. Motivlar o'zaro birlashib syujetni yuzaga keltiradi. Motiv termini xalq og'zaki ijodida, xususan, doston, ertak kabi katta epik janrlami o'rganishda ishlatiladi".

Badiiy asarlarning syujet va motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turli. Biroq ko'pchilik olimlar rus olimi A. N. Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga asos sifatida tayanishadi. Mazkur olim motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo'g'in ekanini ta'kidlab, "Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzaga keltiradi", – deydi.<sup>2</sup> U motivlarni syujetning eng kichik bir bo'linmas bo'lagi sifatida tahlil etadi.

V. Propp va B. Putilovlar esa A. N. Veselovskiyning qarashlarini rivojlantirib, motivlarning hamisha o'zgaruvchan ekanligiga, ular syujetning kichik bir bo'lagi bo'lgan

<sup>1</sup> Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B.190 –191

<sup>2</sup> Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: Vi'ssshaya shkola, 1940. – S.494



holatda uning o'zi ham bo'laklardan, qismlardan tashkil topishiga e'tibor qaratadilar. "Motiv syujetning mag'zidir", deydi B. Putilov.<sup>3</sup> Bu o'rinda olim motivlarning tabiiy evolyusion jarayonini nazarda tutadi.

Motivning tematik kontseptsiyasi B.Tomashevskiy va V.Shklovskiy asarlarida ishlab chiqilgan. Ularning fikricha, motiv asarni ajratish mumkin bo'lgan mavzulardir. N.Tamarchenkoning fikricha, har bir motiv ikki borlik shakliga ega: vaziyat va hodisa. Vaziyat - bu xarakterlar o'zlarini topadigan holatlar, pozitsiya, muhit. Voqea sodir bo'lgan narsa, shaxsiy, ijtimoiy hayotning muhim voqeasi yoki fakti deb ataladi. Voqea vaziyatni o'zgartiradi. Motiv adabiy asar qahramonlari hayotini tashkil etuvchi voqea va vaziyatlarni bog'lovchi eng sodda bayon birligidir. Voqea sodir bo'lgan voqea, hodisa, shaxsiy yoki jamoat hayotining haqiqati deb ataladi. Vaziyat - bu xarakterlar bo'lgan holatlar, vaziyatlar, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlar. Hodisa bu nisbatni o'zgartiradi. Motivlar dinamik yoki adinamik bo'lishi mumkin. Birinchi turdag'i motivlar statik motivdan farqli ravishda vaziyatning o'zgarishi bilan birga keladi.

Adabiy tanqidda so'nggi yillarda motivni tushunishga yondashuvlar sintezi belgilab berildi. Bu harakatni ko'p jihatdan R. Yakobson, A. Jolkovskiy va Y. Shcheglov asarlari belgilab berdi. Motiv endi syujet yoki hikoyaning bir qismi sifatida ko'rilmaydi. Voqea bilan aloqasini yo'qotgan motiv endi matndagi amalda har qanday semantik takror – takrorlanuvchi semantik nuqta sifatida talqin qilinadi.

Motivlar obrazlar yaratishga yordam beradi, asar tuzilishida turli vazifalarni bajaradi. Demak, V.Nabokov nasridagi oyna motivi kamida 3 ta vazifani bajaradi. Birinchidan, gnoseologik: ko'zgu xarakterni tavsiflash vositasidir, u qahramonning o'zini o'zi bilish usuliga aylanadi. Ikkinchidan, bu motiv ontologik yukni ko'taradi: u murakkab fazoviy-vaqt munosabatlarini tashkil qilib, olamlar o'rtasidagi chegara vazifasini bajaradi. Uchinchidan, oyna motivi aksiologik vazifani bajarishi, axloqiy, estetik va badiiy qadriyatlarni ifodalashi mumkin. Motiv turlari ko'p bo'lib, ular orasida arxetipik, madaniy va boshqalar ajralib turadi. Arxetipler kollektiv ongsizlikning ifodasi (ruhni shaytonga sotish motivi) bilan bog'liq. Miflar va arxetipler 1960-yillarda frantsuz tematik tanqidi o'zini bag'ishlagan jamoaviy, madaniy jihatdan obro'li motivlarning xilma-xillagini ifodalaydi. Madaniy motivlar og'zaki ijod, rasm, musiqa va boshqa san'at asarlarida tug'ilgan va rivojlangan. Pushkin lirkasidagi italyan motivlari shoир tomonidan o'zlashtirilgan turli italyan madaniyatining bir qatlami: Dante va Petrarka asarlaridan tortib qadimgi Rim she'riyatigacha.

Bundan tashqari o'zbek xalq dostonlarida uchraydigan sinov motivi ham mavjud. Sinov motivlari epik asarlar tarkibida uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- 1) taqiplarga rioya qilish orqali sinalish; 2) shartlarni o'tash orqali sinalish;
- 3) shartlashish shartlarini bajarish orqali sinalish. Shu jihatdan sinovni taqiq, shart, shartlashishdan iborat motivlar kompleksi deya baholash mumkin.

O'zbek dostonchiligidagi eng ko'p tarqalgan motivlardan biri tush motividir. Tush motivi adabiyotdagi eng qadimiy badiiy tahlil vositalaridan biri hisoblanadi. Bu vosita xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlab, zamondosh yozuvchilarimiz tomonidan samarali

<sup>3</sup> Putilov B. Motiv kak syujetoobrazuyushey element // Tipologicheskiye issledovaniye po folkloru. – M.: Nauka, 1975. – S.142



qo'llanilib kelayotgan an'anaviy usuldir. Ushbu vosita haqida professor X.Umurov "Badiiy adabiyotdagi tushning bu shakli keyinchalik ham davom etadi. Faqat romantizmga kelib, uning vazifasi o'zgaradi: u qahramonlar ichki dunyosini, ularning nozik kechinmalarini ochish maqsadida ishlatila boshlandi. Tush syujetning oldingi voqealari bilan emas, qahramonning oldingi emotsional holati bilan bog'lanadi" [1. 103-bet] deb, ta'kidlaydi.

Xalq dostonlarida timsoliy ma'no kasb etgan, tush motivi bilan bevosita parallel holatda yoxud ushbu motiv bilan chambarchas bog'liq holatda kelgan qator mifologik motivlar ham ko'plab uchraydiki, jumladan, tug'ilishi, sinov, uylanish, safar, homiy, xatar, o'lim, tirlish, sarxushlik, tutqunlik(zindon) va hokazo motivlar mavjud.

Umuman, har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o'z qurilmasiga ega. Motiv esa ana shu qurilmada asosiy o'rinni tutadi. Shunday ekan, folklor asarlari tahlili motivlar tahlili orqali amalga oshmog'i lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
2. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: Vi'sshaya shkola, 1940.
3. Putilov B. Motiv kak syujetoobrazuyushey element // Tipologicheskiye issledovaniye po folkloru. – M.: Nauka, 1975.